

Integration of Environmental Safety, Occupational Health and Safety, and Emergency Management: An Integrated Approach to Protecting Humans and Nature

Vol. 1 Issue 1 | pp. 427-430 | **ISSN:** XXXX-XXXX

Available online @ https://globalconf.net/index.php/IESOHSEM

Article

Aholi Va Hududlarni Favqulodda Vaziyatlardan Ishonchli Muhofaza Qilish Tizimini Takomillashtirishda Zamonaviy Yondashuvlar

R.N. Jo'raqulova[1], Z.Z. Alixodjayev[2]

1. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti "Mehnat muhofazasi va salomatlik muhandisligi" kafedrasi oqituvchisi
2. FVV Ilmiy-innovatsion va sinov-tadqiqot instituti, Tajriba namunalarini ilmiy-tadqiqot sinovlarini ta'minlash bõlimi boshligi (erkin izlanuvchi)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan so'nggi islohotlar tahlil qilinadi. Xususan, 2025-yil 20-oktabrda qabul qilingan prezident farmon va qarorlarining mazmun-mohiyati, ularning sohani modernizatsiya qilishdagi o'rni yoritilgan. Maqolada favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish va oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar, jumladan, "muhofazalangan mahalla" tamoyili, raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish va aholining xavfsizlik madaniyatini oshirish masalalari keng ko'rib chiqilgan

Kalit so'zlar: favqulodda vaziyatlar, muhofaza tizimi, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, innovatsiya, mahalla tizimi, xavfsizlik madaniyati, profilaktika, monitoring va prognozlash, davlat siyosati, qutqaruv xizmatlari, texnogen xavf, ilmiy-tadqiqot.

Citation: Jo'raqulova, R. N., Alixodjayev Z. Z. Aholi Va Hududlarni Favqulodda Vaziyatlardan Ishonchli Muhofaza Qilish Tizimini Takomillashtirishda Zamonaviy Yondashuvlar. Integration of Environmental Safety, Occupational Health and Safety, and Emergency Management: An Integrated Approach to Protecting Humans and Nature 2026, 1(1), 427-430.

Received: 12nd Jun 2026
Revised: 27th Jun 2026
Accepted: 8th Jul 2026
Published: 30th Jul 2026

Copyright: © 2026 by the authors. Submitted for open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

Kirish

So'nggi yillarda O'zbekistonda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yil 20-oktabrda qabul qilingan farmon va qarorlar ushbu sohani tubdan isloh qilishga qaratilgan muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi

Asosiy qism

Prezidentning "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi farmon va "Favqulodda vaziyatlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasini raqamlashtirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari sanaladi [7].

Ushbu hujjatlar sohani ilmiy-texnik asosda yangilash, xavfsizlik madaniyatini jamiyatda shakllantirish va har bir mahallani muhofazalangan hududga aylantirish maqsadida ushbu sohadagi islohotlarning bir qator ustuvor yo'nalishlari belgilandi

“Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi farmon PF-185-sonli Farmoni bilan Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsad qilingan. Farmon favqulodda vaziyatlar xavfini kamaytirish, monitoring tizimini modernizatsiya qilish, yong‘in xavfsizligini ta’minlash va sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali xavfsizlikni yangi bosqichga olib chiqadi [1]

Uning maqsadi jonli va jismoniy zararni kamaytirish, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlashdir [3]. Davlatimiz rahbarining yuqorida qayd etgan Farmonida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilab berilgan.

Birinchidan, «Favqulodda vaziyatdan muhofazalangan mahalla» tamoyili asosida favqulodda vaziyatlarning barvaqt oldini olish, ularni bartaraf etish va oqibatlarini kamaytirish chora-tadbirlari natijadorligini oshirish bo‘yicha «mahallabay» kompleks profilaktika tadbirlarini amalga oshirish;

Ikkinchidan, kun sayin rivojlanayotgan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish industriyasini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha yangicha yondashuvlarning, shuningdek, ularda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan xavflarni bartaraf etishning zamonaviy texnika va texnologiyalarini joriy etish;

Uchinchidan, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida dual ta’limga asoslangan o‘rta bo‘g‘in va yuqori malakali professional kadrlarni uzluksiz tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini hamda ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish bo‘yicha yaxlit tizimni yo‘lga qo‘yish;

To‘rtinchidan, aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash samaradorligini oshirish;

Beshinchidan, favqulodda vaziyatlar tahdidining oldini olish, bartaraf etish, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida ilm-fan, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlikka asoslangan innovatsion ishlab chiqarish zanjirini yo‘lga qo‘yish;

Oltinchidan, favqulodda vaziyatlar monitoringi va prognozi, shuningdek, favqulodda vaziyatlar xavfini bartaraf etishda kuch va vositalarni boshqarish, muvofiqlashtirish hamda ularning faoliyatini raqamlashtirish sohasiga sun’iy intellekt, robototexnika va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish;

Yettinchidan, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bilan bog‘liq kechiktirib bo‘lmaydigan tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Sakkizinchidan, energetika, transport, hayot maromini ta’minlovchi va boshqa muhim iqtisodiyot obyektlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, xavfni boshqarish hamda texnogen avariyalarni bartaraf etish;

To‘qqizinchidan, favqulodda vaziyatlar bo‘linmalarining takrorlanuvchi funksiyalarini maqbullashtirish, kuch va vositalar boshqaruvini muvofiqlashtirish. O‘z navbatida «Favqulodda vaziyatdan muhofazalangan mahalla» tamoyili asosida favqulodda vaziyatlarning barvaqt oldini olish, ularni bartaraf etish va oqibatlarini kamaytirish chora-tadbirlari natijadorligini oshirish bo‘yicha «mahallabay» kompleks profilaktika tadbirlarini amalga oshirish quyidagi mexanizmlarni ko‘zda tutadi:[4]

“Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasini raqamlashtirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-311-sonli qaror favqulodda vaziyatlar (FV) profilaktikasi, monitoringi va prognozlashni raqamlashtirish, sohada ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish belgilangan. 2030-yilgacha bo‘lgan strategiya doirasida FVlarni bashorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari joriy etilib, ilmiy asoslangan xavfsizlik choralari kuchaytirish rejalashtirilgan bo’lib quyidagi chora tadbirlarni o’z ichiga oladi [2].

- FV vaziyatlarini monitoring qilish va prognozlashning yagona elektron tizimini yaratish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish.

- Aholi va hududlarni muhofaza qilishda ilmiy-texnik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish.

- Xavfli hududlarni tezkor aniqlash va risklarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish [5].

“Favqulodda vaziyatlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-310-sonli qarorga asosan favqulodda vaziyatlar organlari faoliyati takomillashtirilmoqda. Mahallalarda profilaktikaning yangi tizimi joriy etilib, qutqaruv xizmatlari samaradorligini oshirish va monitoring tizimini raqamlashtirish asosiy maqsadlaridan biridir. Ushbu maqsadga erishish yo’lida quyidagi ishlar amalga oshiriladi [3].

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha mahallalarda “profilaktika–muhofaza” tamoyiliga asoslangan yangi mexanizmlar joriy etiladi.

- Har bir mahalla ilmiy-texnik yondashuv asosida o‘rganilib, xavf darajasiga ko‘ra “qizil”, “sariq” va “yashil” toifalarga ajratiladi. Shunga muvofiq, “Mahallamizni favqulodda vaziyatlardan muhofazalangan hududga aylantiramiz” shiori ostida kompleks profilaktika tadbirlari amalga oshiriladi.

20 mingdan ortiq ta’lim muassasalarida “Hayot faoliyati xavfsizligi” yo‘nalishidagi o‘quv-amaliy mashg‘ulotlar yo‘lga qo‘yiladi, mahallalarda esa Har bir mahallada yoshlar hamda aholining ko‘ngilli qutqaruvchilardan iborat jamoalar tashkil etilib “Favqulodda vaziyatlar volontyori” jamoalari shakllantirib ushbu jamoalar ishtirokida, “Biz birgamiz!” harakati doirasida hududlarni xavfsizlashtirish ishlari yo‘lga qo‘yiladi

- Manzilli “xonadonbay” profilaktika ishlarini kuchaytirilib, xavfi yuqori hududlarda muntazam o‘rganish, , tuman va shahar kesimida profilaktika rejalari ishlab chiqish, aniqlangan muammolarni bartaraf etish orqali xavf indikatorlarini kamaytirish ishlari amalga oshiriladi.

- Texnik-profilaktika imkoniyatlarini kengaytirilib, zamonaviy texnik vositalar yordamida yong‘in va boshqa favqulodda vaziyatlar xavfi yuqori hududlarda vaqtinchalik maxsus postlarni tashkil etiladi hamda texnik-profilaktika ishlarida jamoatchilik vakillari va mahalla faollarini rag‘batlantirib boriladi.

- Mahalla yettiligi bilan hamkorlik mexanizmini kuchaytirilib har bir mahallaga biriktirilgan FVB rahbar xodimlari, inspektorlar va mahalla faollari o‘rtasida kompleks profilaktika tizimini yo‘lga qo‘yiladi va mahalla fuqarolari yig‘ini binosida “Mahalla muhofazasi” xonalarini tashkil etiladi [6].

Xulosa qilib aytganda, ko‘rib chiqilgan farmon va qarorlar O‘zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Raqamlashtirish, innovatsiyalar va boshqaruvni takomillashtirish orqali tizimning samaradorligi oshirildi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish va xalqaro tajribani keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2025-yil 20-oktabrdagi “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi farmon PF-185-sonli Farmoni
2. 2025-yil 20-oktabrdagi “Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasini raqamlashtirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-311-sonli qaror
3. 2025-yil 20-oktabrdagi “Favqulodda vaziyatlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-310-sonli qaror

4. Maxmudov A. A. “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning ustuvor yo‘nalishlari va amalga oshirish mexanizmlari” Экономика и социум" №3(142)-1 2026
5. https://Lex.uz/
6. https://Kun.uz/
7. https://UZA.uz/